

QO‘QON XONLIGIDA SOLIQ VA MAJBURIYATLAR

Akramov Lazizbek Doniyorbek o‘g‘li

Namangan davlat unversiteti

Tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qo‘qon xonligida joriy etilgan soliq va majburiyatlar, ularning undirish tartibi, aholining turli xil xashar majburiyatlarga jalb qilinishi masalalariga alohida to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *soliq, hashar, ushr, zakot, tanob*

Qo‘qon shahrida soliq va majburiyatlar tizimi Qo‘qon xonligidagi tizim bilan chambarchas bog‘lanib ketgan, chunki u xonlikning poytaxti bo‘lganligi tufayli soliqdan yig‘ilgan bo‘ylik markazga oqib kelgan.

Qo‘qon xonligida olinadigan soliqlar xalqqa juda og‘ir bo‘lib, ular yana turli hasharlarda, ayniqsa boy feodallar uy, saroy, dalalarida, qurilish inshootlarida bepul qatnashishga majbur qilinardi. Shuning uchun ham xalqning noroziligi ortib borgan.

Qo‘qon xonlari joriy qilgan soliq tizimi mamlakatning barcha aholisiga nisbatan birdek tartibda amal qilar edi. Xonlikda joriy qilingan soliqlar tizimi asosan aholi ustidan o‘rnatilgan nazoratning bir ko‘rinishi edi. Xonlik viloyatlarining soliq to‘lash imkoniyati mahalliy aholining shug‘ullanadigan mashg‘ulotlariga bog‘liq edi.

Aholidan olinadigan soliqlar xonlarning kundalik sarf-harajatlarini qoplar edi. Xonlikning harbiy qo‘shinlarining maoshlari ham aynan mamlakat aholisi to‘laydigan soliqlardan qoplanar edi. Xonlikdagi barcha yerlar xonning mulki hisoblangan. Xonlar ushbu yerlarni amaldorlar, qarindoshlari, qabila boshliqlari va boshqalarga yerdan olinadigan soliqning bir qismini o‘zida qoldirish sharti bilan hadya qilar edi.

A.L. Kunning ma‘lumotiga qaraganda, rasmiy soliqlar quyidagilardan iborat bo‘lgan: natural xiroj yoki o‘ndan bir soliq, zakot-tovardan olinadigan savdo solig‘i va hayvonlar hisobidan olinadigan soliq, tarozi solig‘i, daryodan o‘tish uchun soliq, tuz boji yana, maxsus soliqlar ham bo‘lgan.

Xonlikda yer va suv hukmron tabaqalarniki hisoblanib, yerga egalik qilishning to‘rtta turi mavjud bo‘lib ular quydagilar edi:

1. Xiroj yerlar – yer egaligining xususiy yerlari.
2. Davlat yoki amlok yerlari-xonga qarashli yerlar – o‘rmonlar, to‘qaylar, yo‘l va ko‘priklar.
3. Xususiy yerlar-xonning maxsus farmoyishi bilan yirik amaldorlarga berilgan yerlar (suyurg‘ol).
4. Vaqf yerlar – diniy tashkilotlar, ya‘ni, masjid, madrasa va mozorlarga qarashli yerlar.

Qo‘qon xonligida soliq yig‘imiga alohida etibor qaratilgan. Mirza, amin, sarkor, oqsoqol kabilar soliq ishlari bilan shug‘ullanuvchi shaxslar bo‘lgan. Soliqlar beklilik va

xossachi turlariga bo‘lingan. Beklik mahalliy viloyat hokimi xazinasiga uchun yig‘ilgan bo‘lsa, xossachi xon xazinasiga foydasiga olingan.

Xon xazinasiga deyarli barcha soliqlar kelib tushardi, lekin ular asosan Qo‘qon shahri va uning atrofidagi qishlog‘idagi yig‘iladigan. Boshqa yerlardan esa xon xazinasiga faqat quydagilar tushar edi; 1. Tovar va hayvonlardan yig‘iladigan zakot; 2. Sirdaryo kechuvlaridam olinadigon boj; 3. Tuzdan; 4. Xossachi joylardan olinadigan soliq; 5. Xon mablag‘iga qurilib ijaraga berilgan do‘kon, karvonsaroy, omborlardan yig‘iladigan soliq; 6. To‘y marosimlaridan yig‘iladigan soliqlar; 7. Meros bo‘lishdan yig‘iladigan soliq

Viloyat Xokimlariga xiroj tanobona soliqlarini olish huquqi berilgan edi. Xudoyorxonning oxirgi davrlarida (1865-1875-y.) xon xazinasiga har yili biryarim million rublga teng soliq tushar edi.

XIX asrning birinchi yarimida xonlik daromadi natura va boshqa maqsadlarda ishlatilar edi. Qolgan qismi xon xazinasiga tushardi. Sholi, bug‘doy, jo‘xori va boshqa donli ekinlardan g‘allaning beshdan bir qismi soliq sifatida olingan. mevazor bog‘lardan, uzumzor, sabzavot, paxta va boshqa o‘simliklar ekiladigan yerlardan esa uning satxi maydoniga nisbatan soliq to‘lanardi. Bunday yerlardan olinadigon soliq turi tanobona deb atalardi. Shu bilan birga tanobona solig‘i ekilgan narsalarni etiborga olgan holda uning miqdori bilan belgilangan.

Ushr yerlari- “zamini ushr” deb yuritilgan yerlardan xosilning o‘ndan bir qismi miqdorida ushr solig‘i ruhoniylar foydasiga undirilgan. Zakot- maxsulotdan olinadigan savdo solig‘i yoki chorva mollari xisobidan olimadigan soliq bo‘lib, daromadining qiriqdan bir qismini tashkil etgan. Xonlikning savdogarlik sarmoyalari aniq bo‘lmaganligi sababli, sharoitga qarab daromaddan zakot olingan. Shuningdek, chorva mollaridan ham qiriqdan bir ulush hisobida zakot olingan. Arxiv xujjatlarida an‘anaviy zakotdan tashqari – bo‘roqi zakoti, elatiya zakoti, sarkarda kabilar haqida ma‘lumotlar bor.

An‘anaviy soliqlarga to‘y marosimlaridan, meros bo‘linishidan, tarozidan, daryodan o‘tish uchun sollardan, qirg‘iz va qozoqlarning chorvasidan olinadigan va shunga o‘xshash soliqlar kirgan. Xonlikda bulardan tashqari yana turli xil favqulotdda soliqlar mavjud bo‘lib, u tilla puli va mis puli, ulov puli, alaf puli, nafsona, mushtak, kafsan, yaksara va boshqalardir.

Soliqlar qat‘iy belgilangan miqdorda xamda o‘z vaqtida yig‘ilishi shart bo‘lsa-da, xon va amaldorlarning ixtoyori bilan bu holat o‘zgarib turgan. Harbiy harakatlar paytida, ayniqsa, soliqlarning turi va miqdori oshirilgan.

Umuman olganda, adabiyotlarda o‘tin puli, kechuv puli, ko‘mir puli kabi 90 tadan ortiq soliq turlari bo‘lganligi keltirilgan. Lekin, xonlik axolisining barchasi shu soliqlarga birday tortilgan, deb bo‘lmaydi.

1848-yilgi narx-navoni va bir tilloni Rossiya puliga 12 rubl. 80 kapekaga tengligini hisoblaganda Qo‘qon xoni rublga nisbatan quyadagicha daromad olgan: Qo‘qon – 6528000 rubl, Toshkent – 4646400 rubl, Qurama – 3852800 rubl, Xo‘jand – 2905600 rubl, Namangan – 5811200 rubl, O‘ratepa – 1318400 rubl, O‘sh – 3800 rubl, Andijon – 320000 rubl, Tolmozor, Quva va Shaxrixon – 2184500 rubl, Marg‘ilon – 1561600 rubl.

Umuman Qo‘qon xonligining barcha daromadi 29166900 rublga teng bo‘lib, bundan tashqari yana Qashg‘ardan 128000 rubl, Isfara, Ching‘ozi va boshqa joylar, yana tamaki va

rubli har xil boshqa mahsulotlar uchun viloyat hokimlari tomonidan mablag‘ ham bor edi. Bular etiborga olinsa daromad miqdori yana ancha oshadi.

Qo‘qon aholisi soliqlardan tashqari qalalarni, sug‘orish kanallari va ariqlarni qazish va tamirlash, urushlarda qatnashish uchun ot, arava va ishchi kuchlarini yuborishga majbur edi. Agarda shularni bera olmaydigonlar bo‘lsa ulardan pul yig‘ilib, unga ishchi, arava, ot va shu kabilar yollab olingan.

Eng og‘ir majburiyatlardan biri hashar edi. Chunki bunda aholi shaxsiy ishlaridan qoldirib, tekinga turli xil og‘ir qurulish va tamirlash ishlariga ishtirok etishga majbur etilgan. 1874- yil 10- iyunda statli maslahatchi Veynberg Turkmaniston general-gubernatori nomiga yuborgan malumot nomasida bunday deb yozadai: Yo‘llar o‘tkazish, xon uylarini qurish, uning dala va bog‘larida mexnat qilish uchun , ariq va kanallar qazish uchun xonlikning barcha joylaridan ishchilar majburan haydab kelinadi, shu bilan birga ular tekinga ishlashlari zarur. Shunday hollar ham uchrab turadiki, agarda ishchi kelmasa, uni kaltaklashadi va ayrimlari o‘limga maxkum qilishardi (bunday hollar 4–5 marta sodir bo‘ldi). Bazi bir payitda xon irodasiga bo‘ysunmagan bechoralarni tiriklayin yerga ko‘mganlar.

Majburiy ishlar urushga tayyorgarlik yoki dushmandan himoya qilish vaqtlarida ko‘proq bo‘lgan. Birinchi holda bu majburiyat aholi uchun og‘ir bo‘lib tushgan chunki kopincha boy feadallar manfaati yo‘lida behuda o‘zaro urushlarga mexnat qilin va qurbonlar keltirilar edi. Ikkinchi yo‘lda esa vatanparvarlik harakteriga ega edi, chunki bunda o‘z Vatanini, oilasini himoya qilishga qaratilgan. Bu holda aholi ko‘tarinki rux bilan ko‘pincha ixtiyoriy holda ishtirok etardi. Bunga 1842-yili Qo‘qon shaxrini Buxoro amiri Nasurullo dan himoya qilish uchun shaxar atrofini devor bilan o‘rash va qo‘rg‘onlar qurish bilan bog‘liq ishlar yaqqol misol bo‘la oladi.

“Ansob as-salotin va tavorix- i al havorix” nomli tarixiy qo‘lyozmada shunday satirlarni o‘qish mumkun: “Xudoynazar amin va Aziz amin va Rahmquli – choy furush va o‘n ikki og‘aliklar jamot bo‘lib, atrof qo‘rg‘oni nayza birlan o‘lchab mahalla, mahallaga muofiq ahvol berdilar ”.

Majburiyat sug‘orish ariqlarini, qalalarni va shu kabilarni qurishda yuklatilgan. Ammo aholi uchun eng og‘ir majburiyatlardan biri erkak va yigitlarning o‘zaro feodal urushlarda majbur etishi edi.

Qo‘qonda soliq tizimi haqida gapirilyotganda Karl Marksning so‘zlarini eslash joyizdir. U “Xindistonda Biritaniya hukumronligi” asarida bunday deb yozadi: “Osiyoda qadimdan qoida sifatida boshqarishini uch tarmog‘i mavjud bo‘lgan: moliya idorasi yoki o‘z xalqining talash idorasi, harbiy iroda yoki qo‘shni xalqlarni talash irodasi va oxirgisi jamoat ishlari idorasidir”.

Shunday qilib Qo‘qon xonligida (shu jumladan Qo‘qon shaxrida ham) aholi katta miqdorda soliq to‘lar va majburiy ishlarda qatnashar edi. Oqibatda aholing ko‘pchiligini tashkil qiluvchi kambag‘al oilalarga juda og‘ir bo‘lgan, ayrimlari shu sababli tilamchilik bilan kun kechirishga majbur edi. Ayniqsa Xudoyorxonning oxirgi hukumdorlik davrida aholing turmushi og‘ir soliqlar natijasida jidab bo‘lmas darajaga yetib qoladi va Qo‘qon xonligi tarixida eng katta va uzoq davom etgan xalq qo‘zg‘oloni sodir bo‘ladi. Bu qo‘zg‘olon tarixga “Po‘latxon qo‘zg‘oloni “nomi bilan kiradi.

Bu payitda Namanganda bo'lgan Skobelev Rossiya imperyasining topshirig'iga asosan 1876-yil fevralida Qo'qon xonligining butunlay bosib olishga kirishdi. Abduraxmon oftobachi va Po'latxon qo'lga olindi. Abduraxmon oftobachi Rossiyaning Yekaterinoslav gubernasiga, Nasriddinxon esa Viladimir nubernasiga surgun qilindi. Shu tariqa, 1876-yil 19-fevralda 150 yildan beri ko'proq hukum surgan Qo'qon xonligi tugatilib, uning hududlari Rossiya imperiasi tomonidan bosib olindi va uning o'rniga Farg'ona viloyati tashkil etildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bobobekov X. Qo'qon tarixi. – T.:Fan,1996. – (B.125-14)
2. Madraximov Z. Qo'qon xonligida savdo munosabatlari tarixi. – T.: 2014. – (B.15-27-41)
3. Mirzo Olim Maxdum Xoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent yangi asr avlodi .:,2009. – (B.216-223)
4. Kuzikulov I. Qo'qon Xonligi Tarixi. – Namangan nashriyoti 2014- (B.30)